



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI EKOLOGIYA, ATROF-MUHITNI
MUHOFAZA QILISH VA IQLIM O'ZGARISHI VAZIRLIGI
DAVLAT EKOLOGIK EKSPERTIZASI MARKAZI
TOSHKENT VILOYATI FILIALI**

Manzil: Nurafshon shahar, Birlik MFY, Toshkent yo'li ko'chasi 32-uy. Tel: +998 55-900-07-70 (#1024)

**DAVLAT EKOLOGIK EKSPERTIZASI
XULOSASI**

TARTIB RAQAM 01-02/11-4796

HUJJAT TURI Ekologik oqibatlar to'g'risidagi ariza

Davlat ekologik ekspertizasi buyurtmachisi: PAPER PRODUCTION MCHJga berildi.

STIR: 302540933

Obyekt nomi: Toshkent viloyati Zangiota tumani "Bo'ston" MFY, "Ohakchilar" ko'chasi 41 uyda joylashgan "PAPER PRODUCTION" MChJga qarashli yog'och qirindi plitalarini laminatlash sexi uchun ishlab chiqilgan "Ekologik oqibatlar to'g'risidagi bayonoti" (EOTB) loyihasi

Loyihalarini ishlab chiquvchi nomi: "ABDUSATTOR BARAKALI KELAJAK"

MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT

STIR: 305081514

Davlat ekologik ekspertizasi mas'ul eksperti: NURIMOV RAVSHAN SHUXRILLAYEVICH

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-sentabrdagi 541-son qarori bilan tasdiqlangan 1-ilovaga muvofiq, ushbu davlat ekologik ekspertizasi obyekti atrof-muhitga ta'sir ko'rsatishning III toifa toifasining 31-bandiga mansub.

O'tkazilgan davlat ekologik ekspertizasi natijasi: **Ijobiy xulosa**

Davlat ekologik ekspertizasi xulosasi: **Ilovasiz huquqiy hujjat hisoblanmaydi**

Berilgan sana: 02.04.2025

Amal qilish muddati: 02.04.2028

Ekologik ekspertiza obyektining ekologik talablarga muvofiqligi, joylashuv nuqtalari koordinatalari, atrof-muhitni muhofaza qilish chora-tadbirlari, bajarilishi shart bo'lgan talablar va boshqalar to'g'risida ilovada keltirilgan O'zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining Davlat ekologik ekspertiza markazi va filiallarining ekspert xulosasi ushbu davlat ekologik ekspertizasi xulosasining ajralmas qismi hamda unda belgilangan talablar bajarilishi shart hisoblanadi.

Izoh: Buyurtmachi tomonidan davlat ekologik ekspertizasi xulosasida nazarda tutilgan ekologik talablarga rioya etilmaganda, davlat ekologik ekspertizasi xulosasi qonunchilikda belgilangan tartibda bekor qilinadi.



Direktor

A.Xolmurodov

Davlat ekologik ekspertizasi natijalari bo‘yicha Ekspert xulosasi talablari

“PAPER PRODUCTION” MChJ raxbariyati quyidagilarni ta’minlashi lozim:

- Chiqindilarni belgilangan joylarda muvofiq, xavfsiz ravishda vaqtincha saqlash doimiy monitoringini olib borish va ortiqcha chiqindilarning joylashtirilishini oldini olish;
- Avariya holatlarida avariayaviy to‘xtatish tizimi joriy qilinishi va uning doimiy sozligi ta’minlanishi kerak;
- EOTB loyihasiga muvofiq xulosaning shartlarini hisobga olgan xolda, belgilangan reja-tadbirlarni bajarish, shuningdek korxonaning ekologik normativlariga rioya etilishini monitoringini jadval bo‘yicha amalga oshirish;
- Maishiy chiqindilarni to‘plash va vaqtincha saqlash maxsus punktlarda tashkil etish, ularni xili bo‘yicha alohida idishlarda yig‘ilishini ta’minlash va ixtisoslashgan sanitariya korxonasi bilan shartnomaga asosida olib chiqish;
- Rahbarning shaxsiy javobgarligi ostida korxonaning xavfsiz ishlashi bo‘yicha texnologik ko‘rsatmalar talablarini bajarish va xodimlar uchun xavfsiz sharoitlarni yaratib berish, xodimlar va aholiga zararli ta’sirini oldini olish bo‘yicha samarali choralarini ko‘rish;
- Sanoat va yordamchi uskunalar, apparatura, kommunikatsiya va ventilyatsiya moslamlarini soz holda tutish, muntazam ravishda texnik xizmat ko‘rigidan o‘tkazish ishlarini doimiy ravishda amalga oshirishi lozim;
- Qayta tiklanadigan energiya manbaalarini va resursslarni tejaydigan uskunalardan foydalanish, xavflik darajasi pastroq bo‘lgan energiya tejaydigan svetodiod yoritgichlardan foydalanish, fotoelektrik kameralar yordamida ichki yoritishni tashkil etish;
- Bino atroflari kompleks obodonlashtirish, daraxtlar ekib “Yashil makon” barpo qilish, yashil maydonlarni muntazam sug‘orish va doimo tozaligi saqlanishi lozim;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 2 oktyabrdagi 787-sonli “Maishiy chiqindilarni boshqarish sohasidagi ishlarning

samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror talablarining bajarilishi ta’milansin.

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 12 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xududida atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishning iqtisodiy mexanizmlarini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 202-sonli qarori bilan tasdiqlangan, atrof tabiiy muhitni ifloslantirilganligi va chiqindilar joylashtirilganligi uchun kompensatsiya to‘lovlarini qo‘llash tartibi to‘g‘risida Nizom asosida, atrof-muhitni ifloslantiriganligi uchun kompensatsiya to‘lovlar hisob-kitoblar bo‘yicha har yili hisobot yilidan keyingi yilning 25 yanvarigacha rasmiylashtirib kelishiladi va 5 fevralgacha to‘lanishi ta’milanishi kerak.

Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlar talablariga rioya etilmaganligi va loyihaga xaqqoniy ma’lumotlar berilmasligiga korxona rahbari qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo‘ladi.

Loyihaning maqbulligi to‘g‘risidagi Davlat ekologik ekspertizasining xulosasi qonunda belgilangan tartibda davlat idoralari va tashkilotlardan tegishli ruxsatnomalarни olish zaruratinı almashtirmaydi yoki bekor qilmaydi.

Mazkur xulosada ko‘rsatilgan talablar bajarilmasa yoki yuqorida ko‘rsatilgan faoliyatdan tashqari boshqa va ko‘sishimcha faoliyat turlari tashkil etilganda ushbu davlat ekologik ekspertiza xulosasi o‘z yuridik kuchini yuqotadi.

Toshkent viloyati ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasining Zangiota tumani inspeksiyasiga “PAPER PRODUCTION” MChJ tomonidan ekologik qonunlari va me’yorlariga rioya etilishi ustidan muntazam nazorat olib borish yuklatiladi.



Ma’sul ekspert: NURIMOV RAVSHAN SHUXRILLAYEVICH

Obyekt haqida qisqacha ma'lumot

“Davlat ekologik ekspertiza markazi” DUK Toshkent viloyati filialiga Toshkent viloyati Zangiota tumani “Bo’ston” MFY, “Ohakchilar” ko‘chasi 41 uyda joylashgan “PAPER PRODUCTION” MChJga qarashli yog‘och qirindi plitalarini laminatlash sexi uchun ishlab chiqilgan “Ekologik oqibatlar to‘g‘risidagi bayonot” (EOTB) loyihasi Toshkent viloyati davlat ekologik ekspertizasining 2025 yil 2 fevraldagi 01-02/11-3627-sonli davlat ekologik xulosasida ko‘rsatilgan kamchiliklarni bartaraf qilib, qayta ko‘rib chiqish uchun taqdim etildi.

Mazkur korxona uchun Atrof-muhitga ta’siri to‘g‘risidagi bayonot loyhasi ishlab chiqilgan va davlat ekologik ekspertizasining 2024 yil 23 fevraldagi 05/2-2597-sonli ijobjiy xulosasi olingan. Loyihada Toshkent viloyati Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasining Zangiota tumani inspeksiyasi tomonidan korxonani o‘rganish ma'lumotnomasi ilova qilingan.

Loyihada ob’ekt joylashishining geografik koordinatalari quyidagicha:

- 1) 41°19'18.5" shimoliy kenglik va 69°08'20.7" sharqiy uzunlik;
- 2) 41°19'15.8" shimoliy kenglik va 69°08'25.3" sharqiy uzunlik;
- 3) 41°19'21.7" shimoliy kenglik va 69°08'28.5" sharqiy uzunlik;
- 4) 41°19'23.2" shimoliy kenglik va 69°08'25.9" sharqiy uzunlik.

Ob’ektning umumiyligi maydoni 2,0 hektarni tashkil etib, uning xududi shimoldan – qishloq xo‘jalik ekin yer maydonlari, so‘ngra avtomobil yo‘li va sanoat zonasini hududi, sharq va janubdan - qishloq xo‘jalik ekin yer maydonlari, so‘ngra aholi turar uy-joylari, g‘arbdan – avtomobil yo‘li va temir yo‘li, so‘ngra issiqxona hududi bilan chegaralangan.

Eng yaqin aholi turar uy-joylari ob’ekt chegarasidan 150-180 metr masofada janub va shimol tomonida joylashgan.

Mazkur mintaqada sizot suvlari yer sathidan 15,0-20,0 metr chuqurlikda joylashgan. Ob’ekt joylashgan hududning g‘arb tomonidan 150 metr masofada “Damariq” kanali oqib o‘tgan. Loyhaga suv etkazib berish bo‘yicha “Musaffo Obi Hayot Magistral Suv Ta’minoti” AJ bilan 2024 yil 1 yanvardagi 15671-sonnnnnli shartnomasi ilova qilingan.

Loyihaga ko‘ra, “PAPER PRODUCTION” mas’uliyati cheklangan jamiyatiga tegishli bo‘lgan 2,0 hektar yer maydonda hom-ashyoni saqlash omborxonasi, ishlab chiqarish sehi, tayyor mahsulotlar saqlash omborxonasi, avtoturargoh, yer osti qudug‘i va ma’muriy binolardan iborat bo‘lib, bino va inshootlar ob’ekt hududining 1,0 hektarni, qolgan maydonni esa qattiq qoplamlali 0,7 hektarni, shuningdek, yashil maydonlar 0,3 hektarni egallaydi.

Loyihaga ko‘ra, ob’ektda Rossiyadan va boshqa mamlakatlardan temir yo‘1 tarmog‘i orqali keltiriladigan yiliga 15 ming m³ DSP materialini laminatlab LDSP ishlab chiqarish quvatiga ega bo‘lib, buning uchun yiliga 4,8 tonna asos qog‘ozi, 7,6 tonna andoza qog‘ozi, 1,2 tonna pardoz qog‘ozi, 3,0 tonna karbamidoformaldegid smolasи, 200 kg kompressor moyi va 20 kg yozuv qog‘ozi sarflanadi.

Mazkur ishlab chiqarish sexhi yopiq binoda joylashtirilgan bo‘lib, u yerda 2 ta silliqlash dastgohi, 2 ta qog‘oz bichish mashinasi, 2 ta shimdirish qurilmasi, 2 ta laminator presslash liniyasi, 2 to‘plam yordamchi uskunalari o‘rnatalgan.

Loyhada ishlab charish texnologik jarayoni keng yoritilgan bo‘lib, laminatlangan DSP - bu yog‘och qipiqli plitalar ustiga smola shimdirilgan qog‘ozlarni presslash yo‘li bilan yopishtirish tushuniladi. Dastlab, DSP sirtini “DKSh-1” rusumli yog‘ochga ishlov berish dastgohlari yordamida silliqlanib, bunda g‘adir-budirlik darajasi 63-16 mkm bo‘lishi ta’milanadi. Mazkur DSP plitalarini silliqlash jarayonida atmosfera havosiga yog‘och changi tashlanib, loyiha bo‘yicha bu bo‘limni samaradorligi 98% chang-gaz tutib qolish uskunasi bilan jihozlangan.

Keyingi bo‘limda DSP plitalar ustiga yopishtiriladigan qog‘ozlarni tayyorlash ishlari olib boriladi. Plitalarning ichki qatlami va ichki tomonlarini qoplash uchun og‘irligi 80 g/m²ni tashkil etuvchi “asos” qog‘ozdan (sulfatli), ustki qatlarni bezashda ishlatiladigan bir xil rangdagi tasvirli, og‘irligi 126 g/m²ni tashkil etuvchi “andoza qog‘oz”dan (sulfitli), ustki qatlarni yotqiziladigan shaffof, og‘irligi 20 g/m²ni tashkil etuvchi “pardoz” qog‘ozdan foydalanish ko‘zda tutilgan. Yuqorida ko‘rsatilgan qog‘ozlar ustiga karbomidoformaldegidli smola, ya’ni “KF-MT” rusumli yelim surilib, qog‘ozga shimdirilgandan keyin vertikal va gorizontal quritish kameralarida quritiladi. Karbomidoformaldegidli smola surish jarayonida atmosfera havosiga formaldegid bo‘g‘lari tashlanib, loyiha bo‘yicha bu bo‘limni samaradorligi 98,5% chang-gaz tutib qolish uskunasi bilan jihozlangan.

Quritish kameralari ishlashi uchun tabiiy gazdan foydalanib, bunda atmosfera havosiga uglerod oksidi, azot oksidi, azot dioksidi va sulfat angidridi tashlanadi. Quritilgan qog‘oz rulonlarga o‘ralib, so‘ngra kerakli o‘lchamlarda plitalarga moslab bichiladi. DSP plitalari usti, osti tomoniga bichilgan qog‘oz quyilib, 135°-145C° haroratda qizdirilgan press plitalar yordamida 15 minut davomida yopishtiriladi. Plita usti yaltiroq bo‘lishi uchun plita sirtiga shaffof qog‘oz quyilib laminatlanadi. Bu jarayonda ham atmosfera havosiga formaldegid bo‘g‘lari tashlanib, bu bo‘limni samaradorligi 98,5% chang-gaz tutib qolish uskunasi bilan jihozlangan. Tayyor bo‘lgan laminatlangan DSP tayyor mahsulot omboriga yuboriladi.

Sex tarkibiga asosiy ishlab chiqarish bo‘limidan tashqari unga siqilgan havo yetkazib beruvchi kompressor bo‘limi, ofis, ishchilar uchun oshxona va avtoturargoh kiradi. Avtoturargoh korxona balansidagi 4 ta “Gazel” avtomobillarini vaqtinchalik turishi hamda ularga texnik xizmat ko‘rsatish, u yerda tekshiruv o‘rasi va mexaniklar xonasini tashkil etilgan. Loyiha bo‘yicha, ofisni qish davrida isitish va ishlab chiqarish ehtiyojlari (quritish kamerasi) uchun 1 ta isitish qozoni, oshxonada taom tayyorlashda 1 ta “VK-30 l” qozon-o‘choq hamda 1 ta “PG-4”

rusumli gaz plita o‘rnatilishi mo‘ljallangan, buning uchun yiliga 73 ming m³ miqdorida tabiy gaz sarflanadi.

Ob’ekt yiliga 300 kun 8 soatdan faoliyat ko‘rsatadi. Ishchilar soni 50 kishini tashkil qiladi.

Loyihaga binoan, ishlab chiqarish jarayonida atmosfera havosiga ifloslantiruvchi tashlamalar manbalar soni 7 ta (6 ta tashkillashtirilgan, 1 ta tashkillashtirilmagan) bo‘lib, undan atmosfera havosiga yiliga 0,8659 ton ifloslantiruvchi moddalardan: yog‘och changi 0,0072 t/yil; formaldegid 0,0008 t/yil; texnik moyi 0,001 t/yil; uglerod oksidi 0,6673 t/yil; oltingugurt dioksidi 0,0032 t/yil va azot ikki oksidi 0,1862 t/yilni tashkil etadi.

Keltirilgan hisoblarga ko‘ra, atmosfera havosiga chiqariladigan barcha zararli moddalarning yer yuzasidagi eng yuqori konsentratsiyalari sanoat maydoni chegarasidan tashqarida ular uchun o‘rnatilgan kvotalardan yog‘och changi 0,12 PDK kvota 0,25 PDK, formaldegid 0,125 PDK kvota 0,2 PDK, texnik moyi 0,099 PDK kvota 0,25 PDK, oltingugurt dioksidi 0,14 PDK kvota 0,33 PDK, uglerod oksidi 0,054 PDK kvota 0,25 PDK, azot dioksidi 0,092 PDK kvota 0,25 PDKni tashkil etadi,

Atmosfera havosiga tashlanayotgan ifloslantiruvchi moddalarning yer ustki qatlamidagi maksimal konsentratsiyalarining yoyilishi loyihada hisoblanganda, ifloslantiruvchi moddalarining yer usti yoyilishi konsentratsiyasi korxona chegara hududida ular uchun o‘rnatilgan me’yor (kvota) darajasidan oshmasligi aniqlandi.

Ifloslantiruvchi emissiyalarning maksimal ruxsat etilgan me’yori korxona xududidan tashqarida hosil bo‘lgan eng yuqori konsentratsiya belgilangan kvotalardan oshmagan, ya’ni yiliga 0,8659 tonna darajasida belgilanishi tavsiya etiladi. Loyihada atmosferaga tashlamalarning cheklangan miqdori normativlarining nazorati yiliga bir marta tashkillashtirilgan manbalar bo‘yicha instrumental o‘lchov usulida amalga oshirilishi belgilangan.

Ob’ektning xo‘jalik-ichimlik va xo‘jalik-maishiy ehtiyojlari uchun tuman ichimlik suv tarmog‘idan, uning miqdori yiliga 1345,5 m³ni tashkil etadi. Ishlab chiqarish (havoni sovutish) ehtiyojlari, yong‘inga qarshi suv havzasini suv bilan to‘ldirish, hududga suv sepish va ko‘kalamzorlashtirilgan maydonni sug‘orish uchun yiliga 2241,0 m³ miqdorida suv sariflanadi.

Hosil bo‘ladigan maishiy oqava suvlari kanalizatsiya tarmog‘iga tashlanadi.

Yomg‘ir suvlari irrigatsiya tarmoqlariga yo‘naltirilib oqiziladi. Ochiq suv havzalaridan suv iste’mol qilish va ularga suv oqizib yuborish loyiha hujjatida nazarda tutilmagan.

Ob’ekt xo‘jalik faoliyatini tahlil qilish natijalariga ko‘ra, ob’ekt ishga tushirilgandan so‘ng, umumiyl miqdori yiliga – 77,83 tonnaga teng 13 turdag‘i ishlab chiqarish va iste’mol chiqindilarining hosil bo‘lishi aniqlandi:

- 1) Nuqsonli mahsulot chiqindilari – 1,495 t/yil (xavflilik darajasi IV);
- 2) Ushlab qolingan yog‘och changi – 0,353 t/yil (xavflilik darajasi III);
- 3) Polietilen bochka chiqindilari – 0,075 t/yil (xavflilik darajasi IV);
- 4) Yelim chiqindilari – 0,53 t/yil (xavflilik darajasi IV);
- 5) Neft mahsulotlari chiqindilari – 0,001 t/yil (xavflilik darajasi II);
- 6) Qora metall chiqindilari – 0,05 t/yil (xavflilik darajasi V);
- 7) Yaroqsiz maxsus kiyimlar – 0,0975 t/yil (xavflilik darajasi IV);
- 8) Ishlatilgan lattalar – 0,15 t/yil (xavflilik darajasi IV);
- 9) Qog‘oz chiqindilari – 0,017 t/yil (xavflilik darajasi V);
- 10) Yaroqsiz svetodiod chiroqlar – 0,0152 t/yil (xavflilik darajasi V);
- 11) Oziq-ovqat chiqindilari – 0,45 t/yil (xavflilik darajasi V);
- 12) QMCh – 2,5 t/yil (xavflilik darajasi IV);
- 13) Ob’ekt hududini yig‘ishdan hosil bo‘lgan chiqindilar – 72,1 t/yil (xavflilik darajasi IV va V).

Hosil bo‘lgan chiqindilarni qayta ishlash bo‘yicha ixtisoslashgan tashkilotlar va manfaatdor shaxslarga topshirish yo‘li bilan utilizatsiya qilinadi.

Loyihada chiqindilarning xavflilik darajasi bo‘yicha sinflari, me’yorlari va o‘ziga xos ko‘rsatkichlari, chiqindilar hosil bo‘lishi bilan birga ularning tarkibi to‘g‘risida umumiy ma’lumotlar, ishlab chiqarish faoliyatini aks ettiruvchi pasportlar keltirilgan, maishiy chiqindilar bundan mustasno. Korxonada vaqtincha yig‘iladigan chiqindilar uchun maxsus joylar va joylashtirish chegara maydonlari belgilangan. Chiqindilar uchun me’ylashtirilgan hududning maydoni 138 m^2 ni tashkil etib, chiqindilarni joylashtirish limitining umumiy miqdori hisob-kitoblarga ko‘ra xavflilik sinfi II-bo‘lganlari 0,0197 tonna, xavflilik sinfi III-bo‘lganlari 0,147 tonna, IV-bo‘lganlari 1,1301 tonna, V-bo‘lganlari 0,0329 tonnani tashkil etadi.

Loyihada chiqindilarni joylashtirish bo‘yicha tavsiyalar, joylashtirish va utilitashtirish usullarini takomillashtirish reja-tadbirlari, atrof-muhitga ta’sir ko‘rsatish normativlariga erishish bo‘yicha tabiatni muhofaza qilish tadbirlari ishlab chiqilgan hamda ekologik normativlar o‘rnatalgan.

Loyiha hujjatida atrof-muhit muhofazasiga qaratilgan, hamda vujudga kelishi mumkin bo‘lgan avariiali holatlar, yong‘in xavfsizligi va ularning oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilgan.

Ko‘rib chiqish uchun taqdim etilgan atrof muhitga ta’sirini baholashning yakuniy bosqichi materiallari, O‘zbekiston Respublikasi ekologik qonun hujjatlarining talablariga muvofiqligini ko‘rsatdi.

Yuqorida bayon etilganlarga asoslanib, “Davlat ekologik ekspertiza markazi” DM Toshkent viloyati filiali, Toshkent viloyati Zangiota tumani “Bo‘ston” MFY, “Ohakchilar” ko‘chasi 41 uyda joylashgan “PAPER PRODUCTION” MChJga qarashli yog‘och qirindi plitalarini laminatlash sexi uchun ishlab chiqilgan “Ekologik oqibatlar to‘g‘risidagi bayonot” (EOTB) loyihasi **ma’qullaydi**.

Filial direktori

A.Xolmurodov



Ma'sul ekspert: NURIMOV RAVSHAN SHUXRILLAYEVICH